

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

BOSHLANG'ICH TA'LIM VA TARBIYAVIY ISH YO'NALISHI

PEDAGOGIKA KAFEDRASI

«TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI» FANIDAN

**«AVESTO» VA UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI»
MAVZUSIDAGI**

REFERAT

Bajaruvchi: 3-bosqich talabasi R.Musurmonova

Ilmiy rahbar: Z.Holmuhammedova

Kurs ishi pedagogika kafedrasida bajarildi.

Kafedra mudiri:

dots.A.Abdumannatov

Kurs ishi kafedraning 2014-yil ____ fevraldagi majlisida himoya qilindi va
_____ foizga baholandi.

Komissiya raisi:

A'zolari:

SAMARQAND – 2014

KIRISH

ASOSIY QISM

1. Tarixiy manbalar asosida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va rivojlantirish muammolari
2. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni
3. «Avesto»da ma'naviy-axloqiy tarbiya muammolari
4. Barkamol avlod tarbiyasida «Avesto»dagi ma'naviy-axloqiy g'oyalardan foydalanish mazmuni

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida jamiyat hayotining turli sohalarida keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Islohotlarni amalga oshirishda jamiyat hayotini tubdan yangilash, fuqarolarda ishlab chiqarish va mehnatga bo'lgan ijobiy munosabatni qaror toptirish, yaratuvchilik, bunyodkorlik hissini tarbiyalash, ijtimoiy munosabatlarning yangicha mazmun kasb etishiga erishish hamda erkin, mustaqil va har tomonlama barkamol shaxsni voyaga yetkazish maqsadlari ko'zlandi. Bu maqsadlarga erishish ta'lim tizimida ham ilg'or g'oyalarni qaror toptirish, yangi ish uslublarini amaliyotga tatbiq etilishini taqozo qiladi.

Islohotlar davrida milliy qadriyatlarni qayta tiklash va ularni boyitish yo'lida samarali ishlarning amalga oshirilganligi ertangi kun yaratuvchilari bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash zaruriyatini kun tartibiga olib chiqdi. Zero, sobiq Ittifoq davrida milliy qadriyatlarni o'rganish, ularda ilgari surilgan g'oyalar negizida ijtimoiy tarbiyani tashkil etish inkor etilgan edi.

Pedagogik hodisa sifatida shaxsning ma'naviy madaniyatga ega bo'lishi bir necha bosqichni o'z ichiga oladi. Shaxs oila, maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amalga oshirilgan ijtimoiy tarbiya negizida ma'naviy madaniyatning dastlabki unsurlarini o'zlashtiradi. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy tushunchalar rivojlantiriladi, xususiylarining ma'rifiy-tarbiyaviy imkoniyatlari, sinfdan va maktabdan tashqari sharoitda uyushtiriluvchi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning tarbiyaviy ta'siri, shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxs sifatida kamolga yetishiga ta'sir etuvchi ijobiy mazmunga ega ijtimoiy omillardan samarali foydalanish bu borada kutilgan natijalarni qo'lga kiritishga imkon beradi.

Ma'naviy madaniyatga ega shaxsning muqobili sifatida qo'llaniluvchi "komil inson" masalasi eng qadimgi yozma yodgorliklardan biri "Avesto" da markaziy o'rin egallagan. Zardushtiylik g'oyalariga ko'ra ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ish birligidan iborat axloqiy uchlik komil inson ma'naviyatining asosi

sanalgan. Islom ta'limoti da esa inson ma'naviyati uning ruhan yetukligi, o'y-fikrlari, xatti-harakatlari va faoliyatida "yaxshilik", "ezgulik" yoki "savob" tushunchalarining ustuvorligi bilan belgilangan bo'lib, o'z xohish-istaklaridan ko'ra atrofdagilarning manfaatlari uchun xizmat qilish, ularga yordam berishga intiluvchilar komil inson sifatida e'tirof etilgan.

Tadqiqot maqsadi: «Avesto»dagi ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni va ahamiyatini o'rganish, tahlil qilish.

Tadqiqot obyekti: «Avesto» orqali ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish jarayoni

Tadqiqot predmeti: «Avesto»dagi ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari va boshlang'ich ta'limdagi o'rni

Tadqiqot vazifalari:

1. Tadqiqot mavzusiga doir ijtimoiy-falsafiy, tarixiy, pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish hamda kasb-hunar kollejlarning hujjatlari bilan tanishish, pedagogik kuzatish orqali kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida ma'naviy madaniyat unsurlariga egaliklarining mavjud darajasini baholash.

2. Tarixiy manbalarning o'quvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi o'rnini aniqlash.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda «Avesto»dagi g'oyalardan foydalanishning mazmunini belgilash.

Tadqiqotning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining mazmunini belgilab beruvchi direktiv-me'yoriy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Oliy va O'rta maxsus xalq ta'limi vazirliklari tomonidan qabul qilingan qarorlar, me'yoriy hujjatlar; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tomonidan ta'lim sohasida ilgari surilgan g'oyalar; «Avesto», Tadqiqotchi olimlarning ilmiy asarlaridan iborat.

I BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MA'NAVIY- AXLOQIY TARBIYALASHNING NAZARIY ASOSLAR

1.1. Tarixiy manbalar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy- axloqiy tarbiyalash va rivojlantirish muammolari

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, ta'lim tizimi respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy islohotlar sharoitida rivojlanish davriga kirdi. Zero, hozirgi kunda iqtisodiy madaniyati, ma'naviy va moddiy qadriyatlarini insonparvarlik, yuksak axloqiy ideallar ruhida rivojlantirayotgan mustaqil demokratik davlatni barpo etish jarayoni amalga oshmoqda.

O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashning muxim vazifalaridan biri milliy ma'naviyatni yuksaltirish, milliy mafkurani shakllantirishdan iboratdir. Bu murakkab va dolzarb vazifani hal etish uchun bosib o'tilgan tarixiy yo'lni tahlil qilish, ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash, shu asosda tarbiya, ayniqsa kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ma'naviy sifatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik vositalar tizimini yaratish zaruriyati mavjud. Ma'lumki, jamiyat hayoti va unda yashovchi kishilarning ijtimoiy-ma'naviy yuksalishi milliy mafkura, o'quvchilar ta'lim-tarbiyasi hamda bo'lajak mutaxassislarning keng ko'lamda intellektual salohiyatga ega bo'lishini talab qilmoqda. Tarixiy tajribalar shundan dalolat beradiki, har qanday davlat tizimi o'zining asosiy maqsadi sifatida yoshlarga ajdodlardan meros bo'lib qolgan ma'naviy boyliklar, ta'lim-tarbiyaviy qadriyatlarni singdirishni taqozo qiladi. Ta'lim-tarbiyaviy qadriyatlar yosh avlodning ijtimoiy-ma'naviy rivojlanishida zamin bo'lib xizmat qiladigan moddiy, ma'naviy boylik.

Jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan, turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda vujudga kelgan qadriyatlar dolzarb va ahamiyatli.

O'z tarixini chuqur bilgan, uning eng qimmatli jihatlarini anglab olgan, mohiyatini his etgan kishigina o'z millati va xalqining kelajagini tasavvur qila oladi, chunki milliy madaniyat va mafkuraga zamin, tayanch bo'lib xizmat

qiladigan fikrlar, pedagogik qarashlar, yondashuvlar, konsepsiyalar asrlar davomida shakllangan. Ajdodlarimizning ma'naviyat, ma'rifatga oid qarashlari va ta'limotlarining paydo bo'lib, rivojlana boshlash tarixi bir necha ming yillarni o'z ichiga oladi.

Madaniy meros hamda ma'rifiy-ma'naviy qadriyatlarni keng va har tomonlama o'rganish zarurligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ta'kidlanganidek, bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri xalqimizning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini tiklash, buyuk ajdodlarimiz, shoirlar, olimlar merosini xalq mulkiga aylantirish, e'tiqodini va xalqning o'z madaniyati, ma'naviyatining chuqur tarixiy ildizlarini shakllanish bosqichlari va xususiyatlarini ochib berishdan iboratdir. Bu esa, o'z navbatida, milliy ong, g'urur, tariximiz, o'tmish avlodlar xizmatiga hurmat-e'tiborni rivojlantirish, xalq mehnati, vatanga muhabbat tuyg'usini yoshlarda qaror toptirish uchun xizmat qiladi. Tarixiy materiallar misolida boshlang'ich sinf o'quvchilarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash bugungi kunga qadar tadqiq etilmagan muammolardan biridir.

Mustaqil O'zbekistonda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning tiklanishi sobiq sovet jamiyatida xalqning axloqiy qadriyatlariga e'tiborsizlik axloq me'yorlari va tamoyillari buzilishiga sabab bo'lganligini ko'rsatmoqda. Chunki, sinfiylik, yakkapartiyaviylik va yakkahokimlikka asoslangan kommunistik mafkura xalqimizni mulk, hokimiyat, milliy urf-odatlar, an'analar va qadriyatlardan bir qadar uzoqlashtirgan edi. Taniqli olim H.Boboyev ta'kidlaganidek, yakkahokimlik mafkurasi hukumronlik qilgan yillarda o'zbek xalqining milliy manfaatlari chetga surib tashlandi, uning ilmiy-falsafiy, tarixiy, diniy, huquqiy, siyosiy qadriyatlari, milliy ma'naviyati va madaniyati kamsitildi. Natijada barcha xalqlar va millatlar qatorida o'zbek xalqi ham jabr-sitam ko'rdi. Bu esa soxta va riyokor mafkuraning inqiroziga sabab bo'ldi.

Tarixdan ma'lumki, sobiq socialistik jamiyat inqirozining obyektiv sabablaridan biri – jamiyatning ma'naviy inqirozga yuz tutishidan iborat edi. «Sobiq ittifoqda ma'naviy qadriyatlar devalvasiyasiga quyidagilar sabab bo'ldi: 1) 1917 yilda oktyabr to'ntarishidan keyin partiya–davlat apparati to'lig'icha

cheklanmagan hokimiyatni o'z qo'liga oldi va xalq yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarga egalik qilishda cheksiz huquqqa ega bo'ldi; 2) gipertrofiyalangan, bir yoqlama, paxta xom ashyosini ishlab chiqarish monopoliyasi va boy mineral resurslardan nazoratsiz, yirtqichlarcha foydalanishga asoslangan iqtisodiy siyosat olib borildi; 3) shaxsning shakllanishi va faoliyati doimo rasmiyatchilik, befarqlik va ma'naviyatsizlikka to'qnash kelardi; 4) jamiyatda KPSS aqidalari ustuvorligi guruh manfaatlarining umuminsoniy qadriyatlar, ma'naviyatdan ustuvorligi yuzaga keldi, buning hammasi oxir oqibatda ma'naviy degradasiyaga olib keldi».

O'zbekistonning mustaqillik mafkurasi kishilar ongiga kelajakka ishonch, mehr-shafqat, vijdonlilik, bardoshlilik, adolatlilik, bilimga intilish kabi ezgu xislatlarni singdirishga asoslangan. Bunda, albatta, asriy an'analar, til, xalq ma'naviyatiga tayanildi.

Hozirgi kunda jamiyat ma'naviy rivojining murakkab va ko'p qirrali jarayoni ko'p jihatdan milliy madaniyatlarning o'zaro boyishi bilan belgilanmoqda. Aynan shu sababli ham ta'lim tizimini isloh qilishdek katta va muhim ishda ajdodlarimiz tomonidan to'plangan yosh avlod tarbiyasiga oid ko'p asrlik tajribadan unumli foydalanish zaruriyati paydo bo'ldi. Jamiyat taraqqiyotining ko'rsatgichlari shundan dalolat beradiki, shaxs madaniyati hamda pedagogik fikr ijtimoiy-tarixiy jarayonlar bilan birgalikda rivojlanadi. Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, turkiy xalqlar ilg'or pedagogik fikrlarni xalqning ilm-ma'rifatga intilishi, aql va idrok tantanasi, yorqin kelajak haqidagi orzularini yaratibgina qolmay, balki saqlab qolgan va avloddan-avlodga boyitgan holda uzatgan.

Xalqning milliy madaniyati, ma'naviy dunyosi muayyan tarixiy sharoitlarda insoniyat tomonidan uzoq asrlar davomida to'plangan ilg'or fikrlar asosida rivojlangan. Muhimi, bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasida ilgari surilgan buyuk vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligi, ilmiy va ma'naviy saviyasi ko'p jihatdan o'z xalqining ilg'or pedagogik tajribalarini to'liq va chuqur bilishi bilan belgilanadi. O'tmishdagi ijobiy pedagogik tajribalarni o'zlashtirish kasbiy madaniyat, mahoratni egallashda, zamonaviy maktab o'quvchilari oldida turgan vazifalarni aniqroq his etishga ko'maklashadi.

1.2. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni

Ma'naviy kamolot avvalo har bir yoshning aqlu idroki, fikri, bilimi, qobiliyati, iste'dodi, tajribasi va mehnat faoliyatida ifodalanadi. Uning mohiyatini olimlar shunday tushuntiradilar: «... odamni odamiy qilib kelayotgan, Insoniyatni insoniy qilib, nasldan-naslga, avloddan-avlodga o'tkazayotgan, yaxshining yomon ustidan, ezgulikning vahshiylik ustidan, hisning hirs ustidan, go'zallikning xunuklik ustidan, nazokatning dag'allik ustidan, vijdonning nafs ustidan, donolikning jaholat ustidan, vafoning bevafoqlik ustidan, subutililikning beburdlik ustidan, sadoqatning xiyonatu sotqinlik ustidan, iymonning e'tiqodsizlik ustidan, dinning xurofot ustidan g'alabasini ta'minlab kelayotgan pokiza ruhli buyuk zotlardir». Haqiqatdan ham har bir insonning faolligi, mas'uliyatni his etishi, o'z burchini anglay bilishi uning ma'naviy kamoloti bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov jamiyat ma'naviyatini rivojlantirishni ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etar ekan, uning mazmun mohiyatini quyidagicha ta'riflaydi: «Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi». Shuning uchun yosh avlod tarbiyasida uning bilim darajasi, madaniy-siyosiy saviyasi, xulqi, tafakkuri va ongini shakllantirishda oliy qadriyatlarimiz bo'lgan ma'rifiy merosimizdan unumli foydalanishimiz lozim. Chunki xalqning urf-odatlarini, qadriyatlarini, dinining tiklanishi bilan yoshlarni tarbiyalashning yangi–yangi qirralari ochilmoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimovning «Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash, milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi» degan fikri milliy pedagogika tariximizning tarbiyaviy o'rnini yanada yuqori ko'tarish, xususan uning shu vaqtga qadar chetda qolib kelayotgan allomalarimiz ijodiga chuqurroq kirib borish va ularning haqiqiy mazmun-mohiyatini ommaga to'liq yetkazishga undaydi.

O'quvchilarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashni asosiy shartlaridan biri,

ajdodlarimiz tomonidan yaratib qoldirilgan ma'naviy-ta'limiy merosdan unumli foydalanishdan iboratdir. Mazkur merosni yoshlar ongi, turmush tarzi va pedagogik faoliyatiga singdirish ta'lim-tarbiya jarayonining ustuvor vazifalaridan biri. O'quvchilar ma'naviyatining mohiyatini belgilovchi tushunchalar odob, bilim, ilm, amaliy malakalar, iste'dod, qobiliyat; iymon, e'tiqod, vijdon, insof, ixlos; dunyoqarash va mafkuradir. Zero, insonning ma'naviy sifatleri ana shu tushunchalar asosida rivojlanadi. Chunki bu tushunchalarning barchasi axloq odob tushunchasi bilan bog'liqdir. Insonlar o'zaro ijtimoiy munosabatga kirishar ekanlar, ular avvalo axloq-odob me'yorlariga rioya qiladilar. Bu borada o'z davrida katta ahamiyatga ega bo'lgan, yangi sharoitlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan axloqiy sifatlar haqiqiy qadriyat sanaladi.

Ma'naviy sifatlar ta'lim mazmuniga ko'ra turkumlashtirganda quyidagi manzara namoyon bo'ladi:

1-jadval

O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatleri

Axloqlilik va odoblilikka doir sifatlar	Bilimdon-likka doir sifatlar	Iymonlilik, e'tiqodlilikka doir sifatlar	Madaniyatlilik, ma'rifatlilik-ka doir sifatlar
Ezgulik, hamdardlik, xayrixohlik, vatanparvarlik, shafqatlilik, samimiylik, saxiylik, sofdillik, sabr-qanoatlilik, go'zallikni his etish, sadoqatlilik, kamtarlik, andishalilik, muloyimlilik, xushmuomalalilik, sharm-hayolilik, g'amxo'rlik, mehribonlik, do'stlik va o'rtoqlik, mardlik, shijoatlilik, intizomlilik, qadrlilik,	Bilimlilik, ilmga intiluvchanlik, salohiyatlilik, oqillik, zukkolik, malakalilik, mahoratlilik, mohirlik, iste'dodlilik, tajribalilik, teranlik, ziyraklik va boshq.	Diyonatlilik, e'tiqodlilik, vijdonlilik, ishonuvchanlik, ixloslilik, tinchlik, osoyishtalik, insoflilik, adolatlilik, odillik, insonparvarlik, halollik, maqsadlilik, intiluvchanlik, iffatlilik, savobtalablik, sabrlilik, xaqgo'ylik, ko'zi to'qlik, haqiqatparvarlik, xayrixohlik, himmatlilik,	Idroklilik, negbinlik, mehnatsevarlik, ijodkorlik, ishchanlik, shinavandalilik, g'ururlilik, millatparvarlik, tolerantlik, baynalminallik, yaratuvchanlik va boshq.

munislik, muhabbatlilik va boshq.		kechirimlilik va boshq.	
---	--	----------------------------	--

Pedagog olimlar M.Quronov, S.Ochilovlarning fikrlariga tayangan holda, ma'naviy sifatlarga quyidagilarni kiritish mumkin: iymonlilik, e'tiqodlilik, andishalilik, oilaga muhabbat, halollik, birovning haqqiga xiyonat qilmaslik, ota-onaga hurmat, fahm–farosatlilik, bilimlilik, saxovatlilik, mardlik, shirinso'zlik, odillik, hayolilik, samimiylik, mehnatsevarlik, do'stlik, o'rtoqlik, mehmondo'stlik, odamgarchilik, insonparvarlik, vatanparvarlik, tadbirkorlik, chaqqonlik, zukkolik, uquvlilik, xushmuomalalik, poklik, ziyraklik, rostgo'ylik, nazokatlilik, samimiylik, tashabbuskorlik, ona yurti va xalqiga muhabbatlilik, insoflilik, diyonatlilik, or-nomuslilik, rejalilik, sabrlilik, qanoatlilik, vazminlik, milliy g'urur, baynalminallik va boshqalar.

Lekin o'tmishda yaratilgan asarlarda faqat ijobiy sifatga ega bo'lganlar emas, balki salbiy xarakterga ega bo'lgan kishilar haqida ham fikr yuritilgan. O'tmishda yaratilgan asarlarda kishilarning quyidagi salbiy illatlari aks ettirilgan: yomonlik, yovuzlik, g'azabnoklik, fahshparastlik, johillik, buzuqlik, o'zboshimchalik, yalqovlik, ta'magirlik, tanballik, manmanlik, adovatlilik, g'iybatchilik, chaqimchilik, qo'rqqoqlik, hasadgo'ylik, yolg'onchilik, nifoqparastlik, zulmkorlik, bo'htonparastlik, isrofgarchilik, laganbardorlik, tilyog'lamalik, xasislik, xudbinlik, shuhratparaslik, qonunbuzarlik, jinoyatchilik, giyohvandlik, qimorbozlik, ichkilikbozlik, qo'pollik va boshqalar.

Yosh avlodning ma'naviyatini tarbiyalovchi ijobiy sifatlar eng qadimgi davrlardan boshlab yosh avlod tarbiyasida qo'llanib kelinmoqda. Tarix materiallarida ularga o'rgatiladigan ta'limiy vositalarda o'z ifodasini topgandir. Shunday vositalar sirasiga Ma'mun akademiyasi olimlarining bir qator asarlari va Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limotlari hamda «Avesto»dan olingan parchalarni kiritish mumkin. Mazkur parchalarda yaxshilik va yomonlik, haqgo'ylik va nohaqlik, baxt va baxtsizlik haqida bahs yuritilgan. Insoning ma'naviy rivojlanishi masalalariga Qur'oni Karimda ham alohida e'tibor

berilganki, ularni o'rganish talaba shaxsining ma'naviy taraqqiy etishi uchun muhim ahamiyatga ega. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom: «Kishi o'z bolasiga odobdan ko'ra afzalroq narsa ato etolmaydi», deydilar. Shunday ekan, axloqiy sifatleri mukammal bo'lgan insonlar yuksak ma'naviyatli bo'ladilar.

Hayotdan ma'lumki, beodoblik bu tug'ma xususiyat bo'lmay, tarbiyasizlik mahsulidir. Chunki, agar bola yoshligidan boshlab odobli insonlar doirasida yashab voyaga yetsa, u albatta odobli, beodob kishilar orasida o'ssa-beodob bo'lib tarbiyalanadi. Odob oddiy, shunchaki bir so'zday tuyilsa-da, aslida bu so'z zamirida katta ma'no, keng ko'lamdagi insoniy fazilatlar jamuljamdir.

Xalqimiz tarixiga nazar tashlasak, ulug' kishilar o'zlarining chuqur va keng bilimi bilangina emas, balki odob-axloqi bilan ham elu yurtida e'tibor topganini ko'ramiz.

Muhammad alayhissalom musulmon olamida o'zining axloq va odobi bilan ibrat bo'lib kelayotgan buyuk shaxsdir. Uning ibratli axloq odobi avvalo o'z oilasi, qolaversa atrofdagi insonlar orasi, o'zi yashagan jamiyatda yorqin namoyon bo'lgan. Uning uchun axloq hayotning asosiy mazmunini tashkil etgan. U hamisha halolligi, pokligi, axloq odobi bilan barchaga ibrat bo'lib yashagan. Kambag'allar holidan xabar olgan, qarzdorlarning qarzini to'lagan, mehmonni qadrlagan, muhtojlarga ko'mak bergan. o'zini doimo hokisor tutgan, maqtanish, manmanlik, qahr-g'azab bilan muomala qilish kabi nuqsonlardan uzoqda bo'lgan. Xullas, o'zining barcha olijanobliklari hamda yuksak ma'naviy fazilatleri bilan insonlar qalbida abadiy yashab kelmoqda.

O'quvchilarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojni hisobga olgan holda yangidan-yangi manbalarga murojaat qilish zaruriyati yuzaga keldi. Shu zaruriyat tufayli boshlang'ich sinf o'quv darsliklarini «Avesto»dagi tarbiyaviy g'oyalar orqali o'quvchilarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashda xizmat qiladigan o'quv materiallari bilan boyitish maqsadida izlanishlar amalga oshirilmoqda. Jahon xalqlari madaniyatining rivojlanishida Sharq mutafakkirlari, ularning ma'naviy merosi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo xalqlarining falsafiy va didaktik fikrlari rivojida Sharq allomalarining qarashlari alohida ahamiyatga ega. Chunki

ular o'z faoliyatlari davomida ilm-fanning turli sohalarida buyuk kashfiyotlar qilganlar, olamshumul iz qoldirganlar.

IX asrdan boshlangan madaniy-ma'rifiy yuksalish bir necha asr davom etib, bu davr tarixda «Sharq Uyg'onish davri» nomi bilan mashhurdir. Bu haqda qator tadqiqotlar yaratilib, ularda qomusiy allomalarning pedagogika, xususan o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga oid ta'limotlari ilmiy tahlil etilgan.

Ba'zi tadqiqotlarda Sharq allomalarining ma'naviy merosi haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Masalan, S.Hasanov o'z tadqiqotlarida Xorazmni antik davr va o'rta asrlarda rivojlangan fan va madaniyat o'chog'i sifatida Misr, Iroq, Eron, Xitoy, Hindiston, Yunoniston va Rim bilan bir qatorga qo'yadi. Zero, eramizdan avvalgi VI va eramizning I asrida Qo'yqirilgan qal'ada rasadxona mavjud bo'lgan, «Sabr – quvonch kaliti», «Bilim olish: dastlab achchiq, natijasi shirin», «Olijanoblik kaliti-bilim» kabi yozuvlar bitilgan kulolchilik buyumlari topilgan. Xorazm tili arab va fors tillari kabi XIII asr oxirigacha o'z ahamiyatini saqlab kelgan. Sharqshunos olim A.A.Freyman ta'kidlaganidek, xorazm tili XIII-XIX asrlardan keyin to'liq turkiy bo'lgan. Bu jarayon xalqning bilim, ma'rifatga intilishida yuksak ahamiyat kasb etgan, o'z navbatida, davlatning gullab-yashnashiga ta'sir ko'rsatgan. IX-XV asrlarda «Turonzamin», «Turkiston», «Movarounnahr» nomlari bilan tarixda mashhur bo'lgan qudratli davlat xalqlari jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotining oldingi saflarida turish baxtiga sazovor bo'ldi.

Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning «O'zbekiston buyuk kelajak sari» nomli kitobidagi so'zlarga e'tibor qaratamiz. «Ma'naviyatni mustahkamlash uchun mehnat va mablag'ni ayash o'z kelajagiga bolta urish demakdir. Vatan va jahon madaniyatining, adabiyot va san'atning yutuqlari har bir oilaga yetib borish uchun oilaning moddiy ta'minlanganligidan qat'iy nazar qulay sharoitlar yaratish talab etiladi» - deb ta'kidlaydilar. Demak, barcha sohada xuddi shunday sharoitlar yaratish talab etiladi. Biz ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni, o'zligimizni, milliy kechinmalarimizni mustaqillik sharofati tufayli anglab yetdik.

1990 yil akademik S.Rajabov «Xalq maorifi va pedagogika fanining buyuk

allomalari» kitobi nashr etildi. Unda faqat g'arb va rus olimlariga e'tibor qaratilgan bo'lib, aynan ular Ya.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy, A.V.Lunacharskiy, N.K.Krupskaya, A.S.Makarenko va birgina Sharq olimlaridan H.H.Niyoziy faoliyati tahlil qilingan edi. Sobiq shurolar tuzumi davrida pedagogika oliy o'quv yurtlarida, pedagogika tarixi sohasida faoliyat olib borgan olimlarimiz dastur va darsliklar yaratishda juda og'ir, sinovli bir murakkab vaziyatni boshidan o'tkazdilar. Ko'rinib turibdiki, asrlar osha har xil sitamlarni boshidan o'tkazib omon qolgan, bizgacha yetib kelgan milliy qadriyatlarimiz, ma'naviy-ma'rifiy madaniyatimiz, ilm-ma'rifat, shuningdek pedagogika tarixi fani mustaqillik sharofati bilan yangidan rivoj topa boshladi. 1993 yilga kelib professor K.Hoshimov va boshqalar tomonidan «Maorif va pedagogika tarixi» oliy o'quv yurtlari uchun dastur yaratildi. Unda jami 46 soat ma'ruza, 38 soat amaliy mashg'ulotlar bo'lib eng qadimgi ta'lim-tarbiya tarixi «Avesto»ga 2 soat, Sharq mutafakkirlari ta'limotiga 4 soat, Ma'mun akademiyasiga umuman soat ajratilmagan edi. Dasturning ichida shunday jumlar bor «Ushbu reja taxminiy bo'lib, mavzu nomlarini o'zgartirishga hamda tanqidiy yondashishga ruxsat etiladi». Ko'rinib turibdiki uzoq va boy tarixga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'lim-tarbiya tarixiga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, insoniyatning yuzlab avlodlarini mehr-oqibat, saxovat, xushhulqlik, do'stlik, insonparvarlik kabi ma'naviy sifatlarni tarbiyalab kelgan. Xalqimiz yaratgan ma'rifiy fikr sarchashmalari qadim-qadimlarga borib taqaladi.

Sharq minglab daholarni yetishtirgani jahon sivilizasiyasining bugungi taraqqiyotiga tamal toshini qo'yganligi hych kimga sir emas. Bular haqida biz qisman ma'lumotga egamiz. Shunday mutafakkirlar borki, ular to'g'risida hatto tasavvurga ham ega emasmiz. Ushbu tadqiqot shu yo'nalishga xizmat qilib bugungacha o'quvchilar nigohidan deyarli pinhon yotgan ajdodlarimiz, allomalar, ilm-fan va madaniyat olamiga munosib hissa bo'lib qo'shiladi.

II. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA «AVESTO»NING AHAMIYATI

2.2. «Avesto»da ma'naviy-axloqiy tarbiya muammolari

O'quvchilarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashda tarixiy manbalar, «Avesto» va Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti hamda Ma'mun akademiyasi allomalari ijodidagi pedagogik fikrlar muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham pedagogika tarixi kursini «Avesto»dagi o'quvchilar ma'naviy sifatlarini tarbiyalashga xizmat qiladigan ma'lumotlar bilan boyitish maqsadga muvofiqdir.

«Muhtaram Yurtboshimiz I.A.Karimov davlatchiligimizning barcha bosqichlarini chuqur, ilmiy asosda o'rganish masalasini muttasil ravishda ilgari surib kelmoqda. Chunonchi, Ahmad Farg'oniy tavalludining 1200 yilligiga tayyorgarlik yuzasidan olib borilayotgan ishlar bilan tanishuv asnosida tarixchi va arxeolog olimlar diqqatini qadim Qubo davlati tarixini chuqur o'rganishga jalb etish barobarida qadim Xorazm davlati haqida ham to'xtalib o'tdi: Xorazm davlati tarixini biz 2700 yillik tarix deb bilamiz. Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz «Avesto»ning yaratilganiga 3000 yil bo'ldi. Bu nodir kitob bundan 30 asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir. «Avesto» ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi xujjatdirki, uni hyech kim inkor etolmaydi».

2001 yil oktyabr oyida muqaddas kitob Avesto yaratilganligining 2700 yilligi butun dunyoda nishonlandi. Bu tadbir ham ajdodlarimizga bo'lgan hurmat va e'tiborning bir belgisidir.

So'nggi yillarda H.Homidov, S.Hasanov, J.Yo'ldoshev, S.Nishonova, O.Musurmonova, N.Maxmudova «Avesto»dagi ta'limiy-axloqiy qarashlarning ayrim qirralari haqida fikr yuritdilar, tadqiqot ishlari olib bordilar. N.Mahmudova «Avesto»da ta'limiy-ahloqiy qarashlar, ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalarini tadqiq etgan. Ko'rinib turibdiki, «Avesto»ning barcha qismlari uchun xos bo'lgan

ma'naviy sifatlarni va ma'rifiy g'oyalarni tadqiq etish hamda yoshlarda ma'naviy sifatlarni tarbiyalashda ulardan foydalanish masalasi bugungi kunga qadar yetarlicha o'rganilmagan.

«Avesto» 21 kitobdan iborat bo'lgan, biroq ularning ko'pchiligi yo'qolib ketgan. Uning eng qadimgi nusxasi 1324 yilda ko'chirilgan bo'lib, u Kopengagenda saqlanadi. «Avesto» qadimgi Erok tillari guruhidagi tillarning qadimgi yodgorliklari bo'lib, unda insonlarning orzu-istaklari, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi munosabatlar ifoda etilgan. «Avesto» qadimiy ajdodlarimizning ijtimoiy–falsafiy va ma'rifiy fikrlar yodgorligi sifatida o'tmish tariximiz, madaniy va ma'naviy qadriyatlarimizni o'rganishda, bugungi kunda o'quvchilar ma'naviy sifatlarni tarbiyalashda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

«Avesto»ning bizgacha yetib kelgan qismlari «Yasna», «Yasht», «Visprad», «Vendidod» deb nomlanadi. «Avesto»da jami 22 mashhur «Yasht» bo'lib, ular hajmi, yozilish davri, adabiy va tarixiy–madaniy, pedagogik qimmat, ahamiyatiga ko'ra turlicha qo'shiqlardir.

«Avesto» - insoniyatning moddiy, ma'naviy, pedagogik boyligi sifatida juda katta ta'lim-tarbiyaviy qimmatga ega. Zardushtiylik evolyusiyasi uch bosqichga bo'linadi:

Birinchi bosqich - «Avesto»ning eng qadimgi qismi «Yasht»larda jamoa tuzumi qabilalari e'tiqodi aks etgan. Ularning kelib chiqishi, aftidan, e.a. 3 ming yilikka to'g'ri keladi. Ular mazmunida tabiat kuchlarini ilohiylashtirishdan iborat ko'p xudolilik kuzatiladi.

Ikkinchi bosqich – «Gota»lar, ularda yagona iloh Axuramazda haqidagi ta'limot yoritiladi. Uning haqidagi ta'limot Zardushtga tegishli deb, qoraladi.

Uchinchi bosqich - ko'p xudolilik («Yasht»lar) va yakka xudolilik («Got»lar) o'rtasidagi kurash natijasida, e.a. V asrda Mazda yasna deb nom olgan, yuksak e'tiqod yuzaga keladi. U «Avesto» diniy ta'limotida uchinchi va asosiy bosqich sanaladi. «Avesto»da hikoya qilinishicha, ko'plab yaxshi odamlar bo'lgan, bir xil huquqqa ega bo'lishgan, baxtli, yaxshi xulqi bilan hamma bir–biriga namuna bo'lgan, bir so'z bilan aytganda, «oltin asr»da yashagan.

Shunday qilib, «Avesto» ming yillar davomida yaratilgan va O'rta Osiyo, Yaqin Sharq va O'rta Sharq xalqlari madaniy hayotining ko'plab tomonlarini o'zida aks ettirgan yozma yodgorlikdir. «Avesto»ning saqlanib qolgan qismi Ashokidlar (e.a. III asr) davrida to'plangan. Unda ijtimoiy-iqtisodiy hayot, davlatchilikning yuzaga kelishi, siyosiy-huquqiy fikrlar, falsafiy – ma'naviy qarashlar va e.a. I - asr o'rtalari va II-asr yarmi O'rta Osiyo, O'rta va Yaqin Sharq xalqlari dunyoqarashining yuzaga kelishi aks etgan.

«Davlatchilik tarixi mavzusi haqida so'z ketganda I.Karimovning o'zbek davlatchiligi tarixining obro'-e'tiborini o'z o'rniga qo'yishda, uni yuzaga chiqarish bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirishdagi xizmatlarini alohida ta'kidlash zarur. Chunonchi, 1997 yili Xiva shahrining 2500 yilligini nishonlash kunida Islom Karimov o'zbek davlatchiligi 2700 yillik tarixga ega ekanligini butun dunyoga rasman e'lon qilgan birinchi olim va milliy rahbar bo'ldi. Bu bilan davlatchiligimizning tarixiy ibtidosi masalasiga uzil-kesil ravshanlik kiritildi» .

«Avesto»da barqaror markazlashgan boshqaruvchi yirik siyosiy birlashmalar tuzish, kuchli hokimiyat, ma'rifat va Axura Mazda qonunlari bo'yicha boshqariladigan jamiyat va xalq manfaati ustida qayg'uradigan hukmdor nomi ilgari surilgan. «Avesto» bugungi kunda ham yoshlar uchun yo'lchi yulduz bo'lib xizmat qiladi.

«Avesto»da jinoyatlar turi olti guruhga tasniflangan: birinchi guruh – dinga qarshi, ikkinchi guruh – shaxsga qarshi, uchinchi guruh – jonivorlarga qarshi, to'rtinchi guruh – mulkka oid, beshinchi guruh – tabiatga qarshi va eng muhimi, oltinchi guruh – ma'naviyatga qarshi jinoyatlar farqlangan. Buni bilish o'quvchilar uchun muhim ahamiyatga ega. «Avesto»da har qanday axloqsizlik va g'ayritabiiy xatti-harakatlarga yo'l qo'yib bo'lmasligi ta'kidlanadi. Gomoseksualizm, fohishabozlik, turmush o'rtog'iga xiyonat qattiq qoralangan. Besoqolbozlik eng og'ir va eng jirkanch jinoyatlardan biri sanalib, qatl jazosi ko'zda tutilgan yagona ma'naviy jinoyatdir. «Avesto»da fohisha bilan yashash ma'naviy jinoyat ekani alohida uqtiriladi. Bu kabi jinoyatlar sirasiga nafaqat oilani buzadigan va oila qoidalarini zaiflashtiradigan, balki bola tug'ilishi, yosh avlod tarbiyasi, nasl

pokligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan turmush o'rtog'iga xiyonat ham kiritiladi. Begona ayol bilan yashash, nikohsiz farzand ko'rish qat'iy taqib ostiga olinganki, ushbu qarashlar bugunki kunda ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu kabi jinoyatlar qamchi yoki tayoq bilan 800 zarba berib jazolangan. H.Homidov talqini bilan aytganda, «eru xotinning bir-biriga xiyonati qattiq la'natlangan. Begona erkak bilan juftlashgan ayol badnom qilinib, jazolangan va nikohdagi eri uchun «harom» deb hisoblangan».

2.2. Barkamol avlod tarbiyasida «Avesto»dagi ma'naviy-axloqiy g'oyalardan foydalanish mazmuni

«Avesto»ning bugungi ma'naviy–axloqiy va tarbiyaviy talablarga hamohang bo'lgan eng muhim tamoyillaridan biri – bergan so'zning uddasidan chiqish, ahdga sodiqlik, savdo–sotiq va shartnomalarga qat'iy amal qilish, qarzni o'z vaqtida to'lash, aldamchilik va xiyonatdan xoli bo'lish, iymonlilik sifatlaridan iboratdir.

«Avesto»da odamlarni iymonli, e'tiqodli bo'lishga, doimo pokiza yurishga, tanani ozoda tutishga, har qanday yomon niyat va so'zlardan tiyilishga, yomon amallardan voz kechishga, nojo'ya ishlardan yuz o'girishga da'vat etadigan axloqiy qoidalar, o'gitlar nihoyatda ko'p.

Bizgacha yetib kelgan «Avesto» nusxalari 2 variantdadir. Birinchi varianti yolg'iz «Avesto»ni o'z ichiga oladi. Ikkinchi varianti pahlaviy tilidagi sharhli tarjimani ham o'z ichiga olib, u kitoblarga bob va paragraflarga ajratilgan. «Avesto» quyidagi kitob (qism)lardan iborat:

1. Vendidad. U 22 bobdan iborat bo'lib, Axura Mazda bilan Zardushtaning savol-javobi yozilgan.

2. Visparad. 24 bobdan iborat bo'lib, ibodat qo'shiqlarini o'z ichiga oladi.

3. Yasna. U 72 bobdan iborat bo'lib, qurbonlik chiqarish, marosimda aytiladigan qo'shiqlarni, xudolar madhiyasini va boshqa diniy marosimlarga xos rasm-rusumlarni o'z ichiga oladi. Uning 17 bobi gotlar – gimnlar deb atalgan. Bu boblar «Avesto»ning eng qadimgi qismlaridir.

4. Yasht. U Zardushtiylik xudolari va ma'budalari madhiga aytilgan 22 qo'shiqni o'z ichiga oladi.

5. Kichik «Avesto». Unda Quyosh, Oy va ma'budalar sharafiga aytilgan matnlarni o'z ichiga oladi.

«Avesto»ning ko'plab tadqiqotchilari, bu nodir kitobda yuksak ma'naviyatlilik va axloq masalalari yoritilganini ta'kidlaganlar. Bu qarashlar «Got», «Yasna» va «Yasht»larning ayrim boblarida ifodalangan. Pedagogika tarixi bo'yicha majmualar va o'quv qo'llanmalarida xuddi mana shu diqqatga sazovor

o'rinlarni saralagan holda kiritish lozim.

«Avesto»da ta'kidlanishicha ikki qarama-qarshi kuch: ezgulik va yomonlik mavjud. Yaxshilik kuchlariga Axuramazda, yomonlik kuchlariga Axriman boshchilik qiladi. Inson hayoti, uning jamiyatdagi o'rni va faoliyatining ahamiyati shu murosasiz kurash yakuni bilan belgilanadi. Shu bois insonlar o'zlarining ma'naviy sifatlari bilan ezgulik tarafdori ekanini ko'rsatishi va bu bilan ezgulik ruhlari yovuz kuchlarga qarshi kurashda ko'maklashishlari kerak, aks holda axloqi past, nopok inson osongina yovuzlik to'riga ilinadi, deyiladi. Yolg'on tarafdorlariga esa abadiy qiynoq hozirlangan. Shu sababli inson hayotda biror bir maqsadni belgilar ekan, o'z zimmasiga ma'lum majburiyatlarni olib, ularning bajarilishi uchun mas'uliyat his etmog'i lozim, degan g'oya ilgari suriladi.

Yuksak ma'naviylik Zardushtiylik bo'yicha jaholatning, yomonlikning oldini olishdir. Undagi qadimgi medisina, fazo to'g'risidagi fikrlar, astronomiya va falsafaga oid nodir fikrlar inson qalbini yorug'likka chorlaydiki, bu yorug'lik albatta, yaxshilikka olib boradi. Ana shunday ezgulikka xos faoliyatlar Axura Mazda obrazi orqali ifoda etilgan. Shu bilan birga «Avesto»da Mitra qiyofasidagi quyosh va yorug'lik tangrisi, Anaxita – go'zal qiz qiyofasidagi unumdorlik, hosildorlik, farovonlik tangrisi, Xumo esa go'zal qush qiyofasidagi baxt, taqdir, boylik tangrisi, Xubbi – mard yigit, suv tangrisi, Mirrix yosh jangchi qiyofasidagi urush va g'alaba tangrisi sifatida ifodalanganki, bular orqali go'yoki insonning ezgu niyatlari amalga oshishini ta'minlash mumkin.

Dunyodagi biror ta'limot, biror diniy e'tiqodlar yo'qki, hosil olishni Zardushtchalik madh etgan bo'lsa. Jumladan:

Zardusht iloh Axura Mazdadan so'radi:

- Ey, Axura Mazda!

Zaminni hammadan ham baxtiyor qiluvchi zot kim?

Axura Mazda javob berdi:

- Ey, Zardusht!

Kimki uni yaxshilab haydasa va ziroatga tayyorlasa!...

Ey, Zardusht!

Kimki g'alla eksa, u Haqiqatni ekadi....

Asrlar o'tibdiki, «Avesto»da olg'a surilgan ezgu niyatlar, ezgu kalom va ezgu amal hamon barcha insonlarni ezgulik tomon chorlab, ularni ruhan poklab, yuksak ma'naviyat tomon yetaklaydi. Yaxshilik kalomlarini abadiylashga chaqiradi. «Ey, hushyorlar! Quloqlaringiz bilan puxta eshitingiz, eng ezgu kalomlarni va yorug' niyat bilan - xoh er, xoh ayol – har biringiz nazar tashlangiz, to buyuk hodisa ro'y bermasdan va odamlarimiz so'nggi manzilga yetmasdan, ikki yo'ldan birini o'zingizga ixtiyor etingiz-da, bu kalomlarni o'zgalarga ham yetkazingiz».

Yoki kalom va amallar orqali Axura Mazdani Zardusht olqishlaydiki, natijada parvardigor Axura Mazda mazkur olqishlardan xulosa qilishga ishonadi:

Olijanob so'z sehri bilan.

Ham muqaddas vazlar bilan,

Kalom bilan va amal bilan,

Haq aytilgan kalimalarga

Eng haqqoniy kalomlar bilan.

Sharofatli Axura Mazda

Topinmoqqa buyurganlarga

Topinadirmiz.

Zardusht ezgu fikrlar orqali Axura Mazdadan Mitrani tashrif buyurishini so'rab nola qiladi:

Kelsin bizga madad bermoqqa,

Kelsin bizga keng dashtlar uchun,

Kelsin bizni qo'llamoq uchun,

Kelsin bizga muruvvat uchun

Kelsin bizni qutqarmoq uchun,

Kelsin bizga g'oliblik uchun,

Kelsin bizga baxt-shodlik uchun,

Kelsin bizga yaxshilik uchun,

Yolg'onlarga bo'yinsunmas Ul, -

Dunyo hamdu sanolarga,

Loyiq Mitrakim bekarona,

Yaylovlarning molikidir.

Demak, Zardusht ta'limotiga amal qilganlarga suvli yer maydonlari, chorva uchun yaylov, uy va yaxshi xotin va'da qilingan. Zardusht ta'limotiga ko'ra ko'p bolali, oilasini o'z mehnati bilan boqqan, o'z uyida abadiy alangani doimo tutib turgan kishi benuqsondir.

Shunday qilib, O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida yashagan qadimgi xalqlar ma'naviy qarashlarining shakllanishi «Biz» (yaxshilar) va «Ular» (yovuzlar) tushunchalarini ijtimoiy–ruhiy qarama-qarshi qo'yish asosida vujudga kelgan. Yaxshi kishilar zardushtiylikning ma'naviy–axloqiy qoidalariga muvofiq yaxshi sifatlarga ega, yovuz kishilar ezgulikdan mahrum.

Zardushtiylik hamisha dunyo ishlariga: uy qurish, xotin va bola–chaqa orttirish, olov bilan ta'minlash, qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishga, o'z kuchi va vaqtini sarflagan, oila qurishga, faol munosabatga chorlagan. Axuramazdaga murojaat qilar ekan, Zardusht aytadi: «Sen, biz uchun chorva, farovonlik manbaini yaratding». Qachon va qayerda ona-yer o'zini baxtli his qiladi, degan savolga Axuramazda shunday javob beradi: «Qayerda e'tiqodli inson uy qursa, unda olov bo'lsa, chorva, xotin, bolalar va podalar bo'lsa, o'sha yerda farovonlik va yaxshilik bo'ladi».

Inson moddiy boyliklar yaratuvchisi bo'lgani uchungina emas, balki mehnat–ma'naviylik asosi, mehnat–ezgulik manbai bo'lgani uchun ham mehnat qilishga undalgan. Zardushtiylik ta'limoti nuqtai nazaridan yaxshi inson bo'lishi uchun «eng avvalo» mehnat qilishi, o'z qo'li bilan ne'matlar yaratishi lozim. Dangasalik boshqa barcha illatlar onasi sifatida baholanishi ham tasodifiy emas. Shu sababli zardushtiylik ta'limoti o'z tarafdorlariga chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanishni buyuradi, buni jasorat deb baholaydi.

Demak, dehqon mehnati, Zardusht ta'limotiga ko'ra asosiy saxovat namoyon bo'lishi, qonunga itoatning bosh shakli – Axuramazda timsolida mukammal yoritilgan. «Avesto»ga ko'ra inson oliy mavjudot sifatida mehnat qilish, moddiy boyliklar yaratish qobiliyatiga ega va yovuzlikni yenga oladi. Mehnat – odamdagi

insoniylik ko'rsatkichi, mehnat – uning ma'naviy xulqini baholash o'lchovi, mezoni sanaladi.

Zardushtiylilikning shaxs ma'naviy sifatlarini targ'ib qiluvchi xarakterli xususiyati shundaki, ko'plab tushunchalar insonga xos ko'plab tushunchalar ulug'lanadi. Ezgu fikr Axuramazdadan, yovuz fikr Axrimandan bo'lgani kabi Axo Mano, Anxra Manyu atrofidagi asosiy demonlar orasida birinchi o'rinni egallagan alohida mavjudot sifatida fikr yuritiladi. Yovuz ruhlar – gunohlar, adashishlar, kasalliklar va sh.k. Bu odamlarning, kuchlarning doimiy qutblashuvi, ya'ni ezgu ilohlarning yovuz iloh va ruhlar bilan to'qnashuvi kechadigan borliqdagi hayot haqidagi tasavvurlari keng tarqalishi bilan bog'liq.

Ezgulik iloh va ruhlar shohligida ajoyib uyg'unlik – yerdagi ishlar tartibini aks ettiradigan uyg'unlik hukmron.

Kishilar fikri, so'z va ishlari ikki qarama–qarshi kuch: Maxu mana («Ezgu fikr») va Ako mana («Yovuz fikr») ta'siriga beriladi.

Mashhur avestoshunos A.O.Makovelskiyning yozishicha, «Ezgu fikrat»-niyatning yaxshiligi, ilohiy qonun ruhidagi, yaqinlariga nisbatan yaxshilik qilish, zarur bo'lganida madad berishga tayyorlik, kishilar baxt saodati uchun yovuzlikka qarshi kurashga hozirlik ruhidagi o'y-fikr, barcha bilan tinch va totuv yashashga intilish va shu kabilardir. Inson boshqalarga nisbatan baxillik qilmasligi lozim. Ezgu fikrlar egasi jaholatga tushmaydi, chunki jaholatda kishi ezgu niyatlarini yo'qotadi, burch va adolatni unutadi, o'ylamay ish qiladi....

Olimlarimiz H.Boboyev, T.Doschanov, S.Hasanov «Avesto»dagi bu xususiyatlarga shunday fikr bildiradilar. Inson boshqalarga hasad qilmasligi kerak, ezgu fikrli inson jilovlanmagan g'azab va boshqa ehtirolarga tushmaydi, zero bu holatda u ezgu fikrni yo'qotadi, burch va adolatni unutadi va o'ylamagan xatti-harakatlarga yo'l qo'yadi.

«Avesto»dagi uchlikning haqiqiy ildizlariga to'xtaladigan bo'lsak, ular bizdan vaqt nuqtai nazaridan eng uzoq - qadimgi odamlarning ma'naviy tasavvurlariga to'liq mos keladi. Birlashish, muloqot, ezgulik va muruvvatga intilish ibtidoiy odamning uzviy sifatleri bo'lgan. Uning ongi, ma'naviy va boshqa tasavvurlari

o'zi mansub bo'lgan jamoa bilan uzviy ravishda hamohang. Jamoa fikri uning ham fikri, jamoa so'zlari uning ham so'zlari, jamoa ishlari uning ham ishlari bo'lgan. Ibtidoiy odam uchun individualizm yot bo'lgan. Jamoa va shaxsiy manfaatlar birligi urug'chilik jamoasining xarakterli jihati, jamoaning istalgan topshirig'i uning a'zolari uchun muqaddas qonun edi. Vaqt o'tishi bilan avvalgi ma'naviy talablar tamomila o'zgarib, shaxsiy ma'no kasb etdi.

Masalan, keyingi zardushtiylikda ezgu so'zlar deb kelishuvga amal qilish, so'ziga sodiqlik, tijorat ishlarida halollik, qarzni qaytarish, o'g'rilik va bosqinchilikdan nafratlanish, o'zganing mulki (quli yoki xotini)ni egallashni qabul qilmaslik, buzuvchilikdan o'zini tiyish va uni qoralash kabilar tushuniladi. Shubhasiz, zardushtiylikning bu kabi qoidalarini urug'chilik tuzumi parchalangan davrga xos.

Inson nafaqat ezgulik, balki yovuzlik kuchlari ta'siriga ham beriladi. Ta'kidlash joizki, bu o'rinda ham din belgilagan uchlik ko'zga tashlanadi. Axuramazdaga bu yerda Yolg'on ruhi – Drudja va izdoshlari: yovuz fikr – Axriman va bosqinchilik ruhi – Eshma qarshi turadi, ular atrofida insonlarga zarar yetkazuvchi devlar qo'shini mavjud. «Yasht»larda shunday deyiladi: «Siz devlar – yovuz fikr mahsuli, yomon so'z vositasida siz insonlarni ne'matlardan mahrum etdingiz».

«Avesto»ning ma'naviy qoidalarida nafaqat sog'lik va jismoniy kuch, balki ma'naviy poklikka ham alohida o'rin ajratiladi. Ma'naviyatlilik me'yori sifatida «Yasna»da o'z vaqtida va to'g'ri ovqatlanish buyuriladi, bu inson xizmati va ma'naviy majburiyatlarini bajarish hisoblangan. Zardushtiylikning ma'naviy sifatlari insonga hayotda barcha ne'matlardan me'yorida rohatlanish, kunlarini quvonch bilan o'tkazish, oilasi bilan kelishib, yaxshi yashash uchun zarur barcha narsalarni tavsiya etadi. Ma'naviy barkamol inson nafaqat samolarda, balki yerdagi hayot sharoitida ham baxtli bo'la oladi. Buning uchun u hayot ne'matlaridan foydalanishi lozim. haqiqiy ne'mat (baxt nazarda tutiladi) o'zingga oshno qilganlar. Ular (ya'ni baxtli odamlar)ning uylari ko'rkam, chorvalarga boy, uzoq vaqtgacha mo'l–ko'l. Ularning qizlari oyoqlarida taqinchoqlar bo'lgan. Zardushtiylik foydali hayvonlarga yomonlikni mutlaqo taqiqlaydi. Bu katta gunoh,

ma'naviy va diniy nuqtai nazardan jinoyat sanaladi. «Jonli mavjudotga yomonlik qilgan, kaltaklaganga avf yo'q».

Oliy xudo Axuramazdaning o'zi kishilarning barcha amallarini biladi va yodda tutadi, hayoti so'ngida har kimga jazo yoki mukofot belgilaydi: «Ezgulik va yovuzlik o'rtasida ikkinlangan oxirat kunida yaxshiligi va yomonligi uchun javob beradi». Inson hayoti ezgu fikr, so'z va ish bilan kelishuv va birlikda o'tgan bo'lsa, zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, uning pok ruhi abadiy rohatga ko'chib, o'z tanasini kutadi, u o'liklar tirilgan buyuk kunda ruh bilan birlashadi. Agar kelishuv va birlik bo'lmasa, oxirat kuni insonni jazo kutadi.

«Avesto» qoidalarida insonga nafaqat hayot chog'idagi jazo, balki o'limidan keyingi qasos bilan qo'rqitib ta'sir etishga intilishlar ham mavjud. Ma'naviy qoidalar va huquqlar jannat rohati va do'zax azobi sharpasi bilan mustahkamlanadi. Yuqorida aytilganidek, Zardusht ta'limoti ma'naviy-ma'rifiy xususiyatga ega. U Axuramazda timsolida yagona ilohni qarama-qarshi kuch-ezgulik va yovuzlikning murosasiz kurashi g'oyasini e'lon qiladi. Bu kurash tabiat va jamiyatdagi kabi har bir insondagi o'ziga xos zardushtiylik ma'naviy tamoyillarining asosiy jihatlariga diqqatni qaratadi: dunyo va jamiyatda tartib o'rnatish, inson hayotini tartibga solish. Asosiy talab – fikrlar sofliqi, ezgu qalb, haqiqat va adolat. Bu zarur talab, zero yaxshilik va yomonlik inson ongida mujassamdir.

Shunday qilib, «Avesto»da jamiyatning ma'naviy hayoti barcha jabhalari, jumladan III-V asrgacha yashagan Sharq xalqlarining ma'naviy qarashlari o'z ifodasini topgan. Demak, «Avesto»ni Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning tarixiy taqdiri iqtisodiy, siyosiy va madaniy nuqtai nazardan doimo uzviy aloqada bo'lgan xalqlarning yuksak qadriyati- qadimiy madaniy yodgorligi deb, hisoblash zarur.

«Avesto» – xalqlarning ma'naviy tasavvurlari butun davr mobaynida ilohiy emas, balki dunyoviy asosga egaligidan dalolat beradi. Ular asl xalq manfaatlarini va jamiyatdagi tendensiyalarni ifoda etgan, yer yuzida aql va adolat tantanasi uchun kurashda g'oyaviy qurol bo'lib xizmat qilgan, insonlarning ma'naviy

sifatlari ulug'langan.

Ma'lumki, jamiyat tiklanishi va rivojlanishi jarayonida inson biologik va ijtimoiy nuqtai nazardan takomillashib borgan. Zardushtiylik dini va ma'naviy me'yorlarning yuzaga kelishi inson takomili uchun bir rag'bat (stimul) bo'lgan. Ming yillar davom etgan bu jarayon xulq-atvor qoidalari va talablari, ma'naviy sifatlarni takomillashtirishga bevosita ta'sir etgan. Ular inson ijtimoiy tiklanishining asosi sanaladi.

Inson orzu–umidlari, hislari «Avesto»da o'z ifodasini topgan. Unda ta'lim va tarbiya usullarining ma'lum tizimi olimlar tomonidan tadqiq va tahlil qilingan. Ye.E.Bertels, S.P.Tolstov, B.G'.G'afurov, A.O.Makovelskiy, I.Jumaboyev, N.M.Mallayev, H.Boboyev, T.Doschanov, O.Musurmonova, U.Aleuov, S.Nishonova, A.Asqarov, J.G'.Yo'ldoshev, S.Hasanov, A.Mahkamov, H.Homidov va boshqalar shular jumlasidandir. Tadqiqotchilar ta'kidlaydiki, «Avesto» boshqa diniy kitoblar: «Qur'oni Karim», «Tavrot», «Injil», qadimgi hind xalqining «Rigveda», «Ramayana», «Maxobxarat», «Shastra»lari va boshqalar kabi asrlar davomida insoniyatga o'quv qo'llanma bo'lib xizmat qilgan. Bu madaniy yodgorlikning pedagogik ahamiyati yana shundaki, «Avesto»da diniy g'oya va ma'naviy sifatlarni tizimlashgan tarzda keyingi avlodga yetkazish an'ana tusini olgan.

«Avesto» yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlarning muhim tomoni shundaki, har bir olim u tarixchi, faylasuf, huquqshunos, sharqshunos, ahloqshunos bo'lsin o'z qarashlari nuqtai nazaridan yondoshib, Axura Mazda ta'limotiga, ezgulik va baxt-saodatga erishish, shu yo'lda halol mehnat qilish, adolat va haqgo'ylik, poklik va kelajak, yuksak hayotga erishish g'oyasini tahlil etadilar. Masalan, A.Asqarov, U.Aleuov, H.Boboyev, S.Hasanov, B.G'ofurov, N.Mallayev, S.Gambarov, A.Izmaylov, L.Lelekov, A.Makovelskiy, M.Xayrullayev, N.Maxmudova va boshqalar shular jumlasidandir.

«Avesto»da aytilishicha, o'sha davrda bolalar tarbiyasi va ta'limiga katta ahamiyat berilgan. «Tarbiya hayotdagi eng muhim tayanch sanalishi lozim, har bir yoshni shunday tarbiyalash kerakki, avval o'qish, keyin yozishni o'rganib olgach,

eng yuqori darajaga ko'tarilsin».

«Avesto»da bolalarga ta'lim-tarbiya berish metodlari quyidagi tartibda bayon etilgan:

1. Jismoniy tarbiya.
2. O'qish va yozishga o'rgatish (aqliy tarbiya).
3. Diniy va ma'naviy tarbiya.

Zardushtiylilik dinida ilm va ma'rifat kuchiga katta e'tibor qaratiladi. Yoshlar Axuramazdaning bilim va o'gitlarini chuqur o'zlashtirishi uchun «Avesto»da o'ziga xos shaklda 20 ta eng yaxshi ma'naviy sifat tushuntiriladi, ular xulq-atvorning mukammal me'yorlari sifatida taklif etiladi va u har bir yoshda shakllantirilishi lozim deb hisoblanadi. Bu kabi eng yaxshi sifatlar bilim va donolik yordamida insonning muqaddaslik kasb etishi, uning atrof-olamni bilishi uchun tinimsiz izlanishlari, o'qituvchi va yuksak ma'lumotli insonga o'quvchi bo'la olish, adolatni qo'llab-quvvatlash kabilar kiradi. Bu sifatlar mavjud bo'lganida inson Axrimanning dushmanligidan himoyalana oladi, ilm vositasida yovuz, hiylagar kuchlarning yomonligidan xalos bo'ladi. Qadimgi odamlar bolalarni o'qitish, diniy-ma'naviy sifatlar: poklik va ezgulik, mehnatsevarlik, halollik, saxiylik, insonparvarlik va shu kabilarni tarbiyalash ustida qayg'urganlar. Jismoniy tarbiya sog'lom, bardoshli, kuchli, irodali, harbiy ishni egallashga tayyor yoshlarni tayyorlash maqsadini ko'zda tutgan: otda yurish, ov, qilichbozlik, suzish, yugurish, nayza uloqtirish kabilar ta'limda majburiy bo'lgan. «Avesto»da diniy-ma'naviy va harbiy-jismoniy tarbiya hamma uchun birdek, biroq o'qish va yozishga o'rgatish faqat imtiyozli sinflar uchun bo'lgan. Bu qatlamlar bolalari uchun saroy maktablari bo'lib, u yerda mashhur sarkardalar ularni harbiy san'atga o'rgatishgan.

Maktablarda «Avesto»ni o'rganish jarayonida ma'lum ta'lim metodlari ham ishlab chiqilgan. Ko'rgazmali qurollar, o'tilgan mavzuni darslikdan takrorlash, savol-javoblar, bilimlar darajasini baholash shakli ham mavjud bo'lgan. Ta'lim jarayonida tobora muhim matnlarni yod olishga alohida e'tibor berilgan. Bolalarning yoshi va tarbiya xususiyatlarini hisobga olib, matnlarni yod olish

darajasiga ko'ra ular alohida qismlarga bo'lingan, ko'p marta takrorlash metodi qo'llanilgan. o'quv materiallarini o'zlashtirishda izchillik tamoyiliga rioya etilgan.

Eng mo'tabar qadimgi qo'lyozma «Avesto»ning yaratilganiga 3000 yil bo'lgan bo'lsada, o'quvchilarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishda zarur vosita bo'lib xizmat qila oladi. Shuning uchun ham mazkur manbadagi eng qimmatli, muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan yuqorida ko'rsatib o'tilgan qoidalarni pedagogika tarixi kursi mazmuniga singdirish bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy hamda kasbiy jihatdan qurollantirishda ilmiy-amaliy qimmatga ega. «Avesto» nafaqat diniy kitob, balki ijtimoiy, falsafiy, madaniy, adabiy-tarixiy, pedagogik qimmatga ega bo'lgan yodgorlikdir.

1-jadval

«Avesto»da o'quvchilarning ma'naviy sifatlarni tarbiyalashga oid tushunchalar



Xulosa

Tadqiqot natijasida yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda quyidagi xulosalarga keldik:

1. Hozirgi davrda yosh avlodning intellektual va ma'naviy jihatdan rivojlantirmay turib jamiyat taraqqiyotiga erishib bo'lmaydi. Bu borada «Avesto» yodgorligi va Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti katta pedagogik ahamiyatga ega.

2. Sharq xalqlari ma'naviy merosining nodir namunasi «Avesto»ning jamiyatda inson faoliyatining ma'naviy asoslarini belgilovchi axloqiy tamoyili Sharq va G'arbda falsafiy, siyosiy, huquqiy, pedagogik tafakkurning rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Pedagogik fikrlar taraqqiyotida «Avesto» yodgorligi va Sharq allomalarning pedagogik ta'limoti hamda Ma'mun akademiyasi mutafakkirlarining o'quvchilar ma'naviy sifatlarini tarbiyalashga doir fikr va g'oyalari o'z davri jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda keyingi davrlarda ham yosh avlod tarbiyasida aql-idrok, bilim, yaratuvchilik, ijodkorlik, xulq-odob, insoniy munosabatlar, mehnatsevarlik, sog'lom turmush tarzi kabilarni tarkib toptirishda o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

3. Zardushtiylik ta'limoti, Ma'mun akademiyasi olimlarining tarbiya tizimida o'ziga xos umumiylik mavjud bo'lib, bu umumiylik iymon-e'tiqod, ona-Zamin, Vatanga muhabbat, erksevarlik, adolat, xalqparvarlik, insonparvarlik, xulq-odob qoidalari bosh g'oya tarzida fikrlar mahsuli bo'lib, o'quvchilarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashda o'ziga xos uyg'unlik kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992. – 80 b.
2. Karimov I.A. Halollik va fidoiylik faoliyatimizning asosiy mezon bo'lsin, – T.: O'zbekiston, 1994. – 70 b.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq NMK, 1997. – 64 b.
4. Karimov I.A. Xiva shahrining 2500 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi. Xalq so'zi, 1997 yil 21 oktyabr.
5. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – T.: O'zbekiston, 7 - jild. 1999. – 410 b.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. - 171 b.
7. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» qonuni. 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq matbaa-nashriyot konserni, 1997. – B. 20-29.
8. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq matbaa - nashriyot konserni, 1997. – 61 b.
9. Abu Rayhon Beruniy 1000 hikmat. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi A.Irisov – T.: Fan, 1993.
10. Abu Bakr ibn Ja'far Narshaxiy. Buxoro tarixi. – T.: Fan, 1966. – 221 b.
11. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. 1-jild. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994, – 212 b.
12. «Avesto». Tarixiy adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. – T.: Sharq, 2001. – 382 b.